



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Expression of Cultural Views through Animal Images in Korean and Uzbek Proverbs

Xikmatullayeva Durdona Abdullayevna

1st-year Student, Higher School of Korean Studies Institute of Oriental
Languages and Literature Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: durdonaxikmatullayeva6@gmail.com

Scientific Supervisor: Yunusova G.D.

Associate Professor, PhD Higher School of Korean Studies

Abstract: This article provides a comparative linguacultural analysis of animal imagery utilized in Korean and Uzbek proverbs. In the course of the research, figurative proverbs in the Korean language were selected and subjected to a comparative analysis with semantically equivalent Uzbek proverbs. The animal images embedded in the proverbs and the metaphorical meanings expressed through them are thoroughly investigated to identify similarities and distinctive features. Specifically, using the examples of tiger, wolf, monkey, horse, fish, cat, and bird imagery, the study explains how the same core concept is manifested through diverse semantic means within different cultural environments.

Keywords: Korean proverbs, Uzbek proverbs, animal imagery, metaphorical expression, linguacultural studies, comparative analysis, national worldview, cultural mindset, symbolism

KOREYS VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA HAYVON OBRAZLARI ORQALI MADANIY QARASHLAR IFODASI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
institute Koreyashunoslik oliy maktabi 1-bosqich talabasi*

Xikmatullayeva Durdona Abdullayevna



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

durdonaxikmatullayeva6@gmail.com

Ilmiy rahbar: Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti,

PhD. Yunusova G.D.

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys va o‘zbek maqollarida qo‘llangan hayvon obrazlari qiyosiy lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida koreys tilidagi obrazli maqollar saralab olinib, ularga ma’no jihatdan mos keluvchi o‘zbek maqollari bilan qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. Maqollarda aks etgan hayvon obrazlari va ular orqali ifodalangan metaforik mazmunlar atroflicha o‘rganilib, o‘xshash hamda farqli jihatlar aniqlanadi. Xususan, yo‘lbars, bo‘ri, maymun, ot, baliq, mushuk hamda qush obrazlari misolida bir xil g‘oyaning turli madaniy muhitlarda qanday semantik vositalar orqali ifodalangani izohlanadi.

Kalit so‘zlar: koreys maqollari, o‘zbek maqollari, hayvon obrazlari, metaforik ifoda, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, milliy dunyoqarash, madaniy tafakkur, ramziylik.

Inson o‘zi yashab turgan tabiatni shunchaki makon deb emas, balki o‘z fikrlarini ifodalash uchun ramziy til deb qabul qilgan va foydalangan. Qadim zamonlardan boshlab odamlar atrofidagi hayvonlar, o‘simliklar va tabiat hodisalarini kuzatish orqali o‘zlarining xatti-harakatlarini ularga qiyoslay boshlagan. Bu jarayon fan tilida zoomorfik metaforizatsiya deb atalib, inson xarakterini obrazli ifodalashning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Shu tarzda hayvonlar vaqt o‘tishi bilan oddiy mavjudot bo‘lib qolmay, ma’lum bir xususiyatlar (kuch, ayyorlik, qo‘rquv yoki sadoqat) timsoliga aylangan. Bu jarayon xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa maqollarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Maqollardagi o‘ziga xoslik shundaki, ular insonni bevosita tanqid qilmaydi, balki hayvon yoki predmet orqali ma’lum axloqiy tushunchani bilvosita ifodalab beradi. Koreys va o‘zbek tillari o‘rtasidagi qiyosiy tadqiqotlar tarixan Oltoy tillari gipotezasi



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

doirasida ham ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, zamonaviy lingvistikada bu masala bahsli hisoblanadi. Bundan tashqari, umumiy sharqona qadriyatlar uyg‘unligi bu ikki xalq paremiologiyasini qiyosiy o‘rganish uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunga qaramay, ikki xalq maqollaridagi hayvon obrazlari o‘rtasida qiziqarli o‘xshashlik va farqlar mavjud. Xususan, Koreya yarim oroli va Markaziy Osiyoning o‘ziga xos geografik joylashuvi maqollardagi zoomorfik obrazlarning farqlanishiga sabab bo‘lgan: ayrim koreys maqollarida dengiz jonzotlari uchrasa-da, quruqlik hayvonlari ham keng qo‘llanadi, O‘zbek xalq og‘zaki ijodida esa chorvachilik bilan bog‘liq hayvonlar dominantlik qilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bundan tashqari qadimdan Koreyada yo‘lbars eng kuchli yirtqich, balki milliy ramz sifatida talqin qilingan. Choi Nam-Seon tomonidan Koreya yarim orolining geografik shakli o‘zining haybati va shijoati bilan Osiyo qit‘asiga hamla qilayotgan yo‘lbars qiyofasiga o‘xshatilgan¹. Shu sababli, u aksariyat koreys maqollarida shunchaki hayvon emas, balki hokimiyat, kuch va ustunlik timsoli bo‘lib kelgan². O‘zbek xalq og‘zaki ijodida esa ushbu mazmuni ochib berish uchun bo‘ri yoki sher obrazlari qo‘llangan. Shuningdek, koreys maqollarida it obrazi salbiy past maqomdagi timsol sifatida qaralsa³, o‘zbek maqollarida u sodiqlik va sadoqatni aks ettiruvchi obraz deb e’tirof etiladi. Bunday farqlar har bir xalqning tarixi, urf-odatlari va madaniy qadriyatlariga borib taqaladi. Shu bois maqollardagi hayvon obrazlarini bir-biriga qiyoslab o‘rganish nafaqat ulardagi ma’noni chuqurroq anglashga yordam beradi, balki turli millatlarning dunyoqarashi va

¹ Yi E. Thinking Through the Tiger: Korean Cultural Identity, Space, and Time // Humanities. – 2025. – Vol. 14, №19. – B. 8-10. – DOI: 10.3390/h14193152878.

² Kodirov E. 한국과 우즈베크의 속담 비교 연구(A Comparative Research of Korean and Uzbek Proverbs). Magistrlik dissertatsiyasi. – 중부대학교 (Joongbu University), –2019. – B. 25.

³ Cho H. 한국어와 스페인어 개 관련 속담의 상징적 의미와 의미 구조 (Symbols and Semantic Structures of the Spanish and the Korean Proverbs about Dogs) // The Korean Journal of Hispanic Studies. – 2016. – Vol. 9, №2. – B. 193-194. – DOI: 10.21210/KJHS.9.2.7.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

madaniyatidagi o‘ziga xoslikni aniqlashga zamin yaratadi.

| | |
|-----------------------------|--|
| Koreys xalq maqoli (한국어 속담) | O‘zbek xalq maqoli (uzbek xalq maqoli) |
| 호랑이도 제 말 하면 온다 | Bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi |

Koreys maqoli “호랑이도 제 말 하면 온다” (yo‘lbars haqida gapirsang, u keladi) va o‘zbek maqoli “Bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi” bir xil mazmuni ifodalasada, ularda tanlangan obrazlar har xil. Bu tasodifiy tanlov emas, aksincha ikki xalqning tarixi va tabiiy muhitiga borib taqaladi. Koreys lingvokulturologik tasavvurida yo‘lbars hokimiyat, kuch va qo‘rquv ramzi sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ham ular “xavf” obrazini yo‘lbars orqali ochib berishgan. O‘zbek xalq maqolida bo‘ri obrazi tanlanishi chorvachilik bilan bevosita bog‘liq, ya’ni o‘zbek xalq qarashlarida bo‘ri chorvachilik hayoti bilan bog‘liq real xavf timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu holat maqollardagi obrazlar xalqning yashash sharoiti va tajribasiga asoslanib tanlanganligini ko‘rsatadi.

| | |
|-----------------------------|--|
| Koreys xalq maqoli (한국어 속담) | O‘zbek xalq maqoli (uzbek xalq maqoli) |
| 고양이에게 생선을 맡기다 | Qo‘yni bo‘riga ishonib topshirish |

Koreys maqoli “고양이에게 생선을 맡기다” (mushukka baliqni topshirish) mas’uliyatsiz, ishonchsiz shaxsga muhim ishni ishonib topshirish ma’nosini ifodalaydi. Bu yerda mushuk obrazi uning tabiiy instinktidan kelib chiqib tanlangan, ya’ni mushuk uchun baliq bu ozuqa hisoblanadi. Mushuk baliqni himoya qiluvchi emas, aksincha uni yeyishga moyil mavjudotdir. Shu bois maqol ko‘pincha ogohlantirish vazifasini bajaradi: ishonch bildirilayotgan shaxsning tabiati, manfaatlari va qadriyatlarini inobatga olinishi kerakligiga ishora qiladi. O‘zbek tilidagi “Qo‘yni bo‘riga ishonib topshirish” ham aynan shu ma’noda qo‘llanadi. Faqat koreys xalq maqolidan ko‘ra, o‘zbek tilidagi



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

semantik ekvivalentida ko‘proq dramatik va xavfli obrazlar yetakchilik qiladi. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o‘zbek chorvadorlari uchun bo‘ri eng real xavf timsolidir. Bu maqol nafaqat maishiy, balki ijtimoiy-siyosiy kontekstda ham keng qo‘llanilgan. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida shunday parcha kelgan: *“Shunga binoan Turkiston xalqlarining istiqbollarini bu ikki firqaning bittasiga havola qilish baayni qo‘yni bo‘riga topshirish qabilida bo‘ladir”*⁴. Maqoldan mas’uliyat to‘g‘ri shaxsga yuklatilishi zarurligi anglashiladi.

| Koreys xalq maqoli (한국어 속담) | O‘zbek xalq maqoli (uzbekcha) |
|-----------------------------|-------------------------------|
| 낮말은 새가 듣고 밤말은 쥐가 듣는다 | Devorning ham qulog‘i bor |

Koreys tilidagi yana bir mashhur maqollardan biri “낮말은 새가 듣고 밤말은 쥐가 듣는다” (kunduzgi gapni qush, kechqurungi gapni sichqon eshitadi) . Ushbu maqol o‘zbek tilidagi “Devorning ham qulog‘i bor” maqoli bilan deyarli bir xil ma’noni ifodalaydi. Maqollardagi tanlangan obrazlar turlicha bo‘lishiga qaramay, ular ayni fikrni ochib berishga xizmat qiladi. Ya’ni ikki xalq tafakkurida sir saqlash nisbiy hodisa bo‘lib, har qanday aytilgan so‘z kutilmagan tarzda oshkor bo‘lishiga ishora qilinmoqda.

Koreys tilidagi qush va sichqon obrazlarining ramziy ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qush koreys madaniy tasavvurida ochiq makon, yuqoridan hamma narsani kuzatuvchi mavjudot sifatida talqin qilinadi, sichqon esa yopiq, yashirin makon, ko‘rinmasdan eshituvchi timsolni ifodalaydi. Mazkur ikki obrazning bir maqolda ishlatilishi orqali makon(ochiq-yopiq) va vaqt (kun-tun) to‘liq qamrab olingan.

O‘zbek tilidagi maqolda muayyan bir hayvon ishtirok etmagan, o‘rniga “devor” obrazidan foydalanilgan. U oddiy jonsiz predmet bo‘lishiga qaramay, ramziy ma’nodagi

⁴ Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Roman // “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, –2004. – B. 74.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

“eshituvchi” sifatida tilga olingan. Bu yerda jonsiz predmetga inson a’zosini biriktirish orqali hatto eng yopiq joyda ham axborot tarqalib ketishi mumkinligi metaforik tarzda kuchaytirib berilgan.

| Koreys xalq maqoli (한국어 속담) | O‘zbek xalq maqoli (uzbek tili) |
|-----------------------------|---------------------------------|
| 뱀새가 황새 따라가면 다리 찢어진다 | Ko‘rpangga qarab oyoq uzat |

Xalq og‘zaki ijodida insonning jamiyatdagi o‘rni va moddiy imkoniyatlari ko‘pincha antagonistik (qarama-qarshi) obrazlar orqali ifodalanadi. Bunga misol qilib koreys tilidagi “뱀새가 황새 따라가면 다리 찢어진다” (kichik qush laylakka taqlid qilsa, oyog‘i yirtiladi) maqoli va o‘zbek tilidagi “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” maqolini keltirsak bo‘ladi. Faqat koreys maqolida g‘oya aniq va jonli obrazlar orqali ifodalangan bo‘lsa, o‘zbek maqolida u umumlashtirilgan, ixcham tarzda tasvirlanadi. Koreya xalq maqolidagi tanlangan obrazlar ijtimoiy status ramzi bo‘lib xizmat qiladi. “뱀새” (mayda o‘rmon qushi) koreyslar tasavvurida kichik va zaif qush sifatida qaraladi, “황새” (laylak) esa aksincha, baland uchuvchi va yirik qush bo‘lib, yuqori daraja va ustunlik timsoli hisoblanadi. Har ikki xalq maqolida ham me’yorni bilmaslik qoralanadi, boshqalarga ko‘r-ko‘rona ergashish yoki o‘z imkoniyatlaridan tashqarida harakatlanish salbiy oqibatlariga olib kelishi ta’kidlanadi.

O‘zbek maqolida esa “Ko‘rpa” – mavjud imkoniyat, “oyoq uzatish” esa ehtiyojlar ramzidir. Maqolning o‘zbek jamiyatidagi hayotiy falsafasini Tohir Malik o‘zining “Shaytanat” asarida juda lo‘nda ifodalagan: *“Odam qo‘lidan keladigan ishga harakat qilishi kerak. Ko‘rpaqa qarab oyoq uzatavering”*.⁵

| Koreys xalq maqoli (한국어 속담) | O‘zbek xalq maqoli (uzbek tili) |
|-----------------------------|---------------------------------|
| | |

⁵ Malik T. Shaytanat. Ikkinchi kitob. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, – 2018. – B. 102.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

| | |
|----------------|-----------------|
| 원숭이도 나무에서 떨어진다 | Ot ham qoqiladi |
|----------------|-----------------|

Koreys tilidagi “원숭이도 나무에서 떨어진다” (maymun ham daraxtdan yiqiladi) – o‘zbek tilidagi ma’nodoshi: “Ot ham qoqiladi”⁶. Bu ikkala maqolda deyarli bir xil ma’no anglashiladi. Ya’ni maqolda tajribali shaxslar ham xato qilishi mumkin degan g‘oya ilgari surilgan. Lekin e’tibor qaratishimiz kerak bo’lgan nuqta: ularda tanlangan obrazlardir. Koreys maqolida maymun obrazi orqali mazmun ochib berilgan. Maymun koreys madaniy tasavvurida chaqqon va daraxtda erkin harakatlana oladigan mavjudot sifatida talqin qilinadi. Shunga qaramay, uning daraxtdan yiqilishi tabiiy. Bu har qanday mavjudot ham xato qilishga moyil ekanligini ko‘rsatadi⁷.

O‘zbek maqolida esa ot obrazi tanlangan. O‘zbeklar hayotida ot nafaqat transport vositasi, balki ishonch, kuch, tajriba timsoli sifatida tasvirlanadi. “Qoqilish” esa harakat jaroyonida sodir bo‘ladigan tabiiy va oddiy hol deb qaraladi. Shu tariqa, ikki xalq ham o‘z hayot tarziga yaqin bo‘lgan obraz orqali ayni fikrni turlicha ifodalashgan.

Xulosa. Tanlangan besh maqol asosida shunday xulosaga kelindiki, maqollarda qo‘llangan hayvon obrazlari yetkazilishi kerak bo‘lgan fikrni kuchaytirishga xizmat qilgan. Koreys va o‘zbek maqollarida bir xil g‘oya turli hayvon obrazlari orqali ifodalangan: Tahlil qilingan misollar asosida koreys maqollarida obrazlilik va kontrast kuchliroq namoyon bo‘lishi, o‘zbek maqollarida esa umumlashtirish va axloqiy xulosa ustuvorligi kuzatiladi. Bu farq ikki xalqning madaniy tafakkuri va milliy qadriyatlarini shuningdek, dunyoni tasvirlash uslubidagi o‘ziga xoslikni aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

⁶ Alibobo va qirq qaroqchi. Arab xalq ertaklari. To‘plam / Tarjimonlar: A. Qahhor, Q. Mirmuhamedov, U. Karimov. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, –2017. – B. 11.

⁷ Kim, S. J., Kim, S. S., Lee, S. H., Jung. 살아있는 한국어: 속담. – Seul: Hollym (Korea Language Plus), – 2011. – B. 65.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

1. Alibobo va qirq qaroqchi. Arab xalq ertaklari. To‘plam / Tarjimon: A. Qahhor. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, – 2017. – 148 b.
2. Cho H. 한국어와 스페인어 개 관련 속담의 상징적 의미의미 구조 (Symbols and Semantic Structures of the Spanish and the Korean Proverbs about Dogs) // The Korean Journal of Hispanic Studies. – 2016. – Vol. 9, №2. – B. 181–205. – DOI: 10.21210/KJHS.9.2.7.
3. Kim S.-J., Kim S.-S., Lee S.-H., Jung J.-Y. 살아있는 한국어: 속담. – Seul: “Hollym (Korea Language Plus)”, – 2011. – 260 b.
4. Kodirov E. 한국 va 우즈베크의 속담 비교 연구 (A Comparative Research of Korean and Uzbek Proverbs). Magistrlik dissertatsiyasi. – 중부대학교 (Joongbu University), – 2019. – 96 b.
5. Malik T. Shaytanat. Ikkinchi kitob. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, – 2018.
6. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: “Sharq”, – 2005. – 512 b.
7. Qodiriy A. O‘tkan kunlar Roman. // “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, – 2004. – 377 b.
8. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: “Musiqqa”, – 2010. – 370 b.
9. Yi E. Thinking Through the Tiger: Korean Cultural Identity, Space, and Time // Humanities. – 2025. – Vol. 14, №19. – B. 1–15. – DOI: 10.3390/h14193152878.
10. www.ziyouz.com – O‘zbek xalq maqollarining elektron to‘plami (Online manba).